



BOSHQARUV FAOLIYATIGA OID QARASHLAR(G'ARB MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA)

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi
Qo'ldoshev Orzibek*

Anotatsiya. Adabiyotning o'zini anglash ehtiyoji uning o'ziga egiz tug'ilgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, badiiy ijod tabiati, adabiyotning mohiyati va vazifalari haqidagi o'y-mulohazalar bizgacha yetib kelgan eng ko'hna yozma manbalarda ham uchraydi. Shuni ham qayd etish lozimki, ko'hna yozma manbalar orasida ilmiy muomalada kengroq ommalashgani va chuqurroq o'rganilgani qadimgi yunon-rim yozma yodgorliklaridir. Shu bois ham qadimiyat haqida so'z ketganda ko'proq shu manbalarga tayaniladi.

Kalit so'zlar. Boshqaruv, jamiyat, sudlov ishlari, ritorika, notiqlik, kommunikatsiya, apellyativ, muhokama, prinsip, inqiroz, siyosat.

Kirish.

O'z navbatida, ritorikaning taraqqiy etishi antik Gretsiyada notiqlik san'atining ulkan ahamiyat kasb eta boshlagani bilan izohlanadi. Darhaqiqat, bu davrga kelib antik Gretsiyada davlat-boshqaruv ishlarida notiqlik san'ati o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib ulgurgan edi. Davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarning qay yo'sin hal qilinishi, jamiyat hayotiga bevosita aloqador biron bir tadbirning joriy etilishi yoki rad qilinishi, sudlov ishlarining qanday ajrimga kelishi - bularning bari muhokama jarayonida masala mohiyatining qanday yetkazib berilishiga ko'p jihatdan bog'liq edi. Albatta, bunday sharoitda nutq qurilishi, uni mantiqli, izchil, ta'sirli qilish yo'llarini o'rganuvchi maxsus fanning rivojlanishi tabiiy. Muhimi, bu fan adabiyotning asosi - nutqni o'rganishga qaratilgan, bas, notiqlik san'ati bo'yicha bildirilgan fikrlar adabiyotga bevosita aloqador edi. O'z faoliyatlarida ritorika masalalariga katta e'tibor qaratgan yunon sofistlarining bu boradagi xizmatlari salmoqli. Jumladan, ulardan biri - ritorika fani asoschilaridan sanaluvchi Protogor (mil.av.480-410 yy.) nutqning tinglovchiga huzur bag'ishlashi yoki tasavvurida o'tmishni jonlantirishining o'zi kam, u tinglovchi tasavvurlarini notiq istaganidek o'zgartirishi, shakllantirishi lozimligini ta'kidlaydi. E'tibor berilsa, bu o'rinda adabiyotga xos g'oyaviy yo'naltirilganlik, kommunikatsiyaga (jumladan, badiiy kommunikatsiyaga) xos apellyativ maqsad haqida so'z borayotgani anglash qiyin emas. Yoki boshqa bir sofist - Gorgiy (mil.av.483-375 yy.) poeziyada "so'z qalbni



o'zgaralar kulfatiyu shodligini o'zinikidek his etishga majbur qilishi"ga diqqat qiladi. Ko'rib turganimizdek, Gorgiy badiiy tilning emotsionalligi, badiiy retsepsiya jarayonidagi hamdardlik ("soperejivanie"), qahramonlar ruhiga kirish ("vjivanie") singari adabiyotshunoslik, umuman, estetikaning muhim masalalariga e'tibor qilgan. Qadimgi Gretsiyadagi ilk notiqlik maktabiga asos solgan Isokrat (mil.av.436-338 yy.) o'z faoliyatida ko'proq yozma nutq xususiyatlarini o'rgandi. Shundan bo'lsa kerak, u til normalarini ishlab chiqish, lug'at tarkibini tasniflash kabi masalalarga ayri-ayri e'tibor beradi. Isokrat taklif etgan tasnifga ko'ra, so'zlar uch guruhga bo'linadi: "yangi", "xorijiy" va "ko'chma ma'noli". Isokrat va uning shogirdlari nutq oldiga bir qator talablarni qo'yadilar. Masalan: nutq ravon bo'lishi lozim, buning uchun esa unilarning yondosh kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak; fikrning yarmisigina ifodalash kerak, biroq shundayki, qolgan yarimi tinglovchiga shundoq ham tushunarli bo'lsin; proza butkul proza bo'lmasin, bu holda u quruq bo'lib qoladi, biroq uning to'la vaznli bo'lishi ham nomaqbul - ko'zga yaqqol tashlanib qoladi va boshq. Sofistlarning faoliyati tamomila amaliy yo'naltirilgan, ya'ni muhokamalarda tinglovchilar fikrini shakllantira oladigan notiqalar tayyorlash, shunga muvofiq nutq irod qilish yo'llarini o'rganish va o'rgatishdan iborat edi. Shu bois ham ular nutqning ifodali bo'lishi bilan birga dalilli bo'lishiga ham jiddiy e'tibor berganlar. Jumladan, ular voqeyelikni tasvirlash, fikrni dalillashda "haqiqatga o'xshashlik", "ehtimollik" ("eykos") prinsipiga amal qilganlar. Bu prinsipga ko'ra muayyan voqeya, shaxs yoki uning xatti-harakati haqida tinglovchilarda notiqqa kerak bahoni hosil qilish birlamchi, haqiqat esa ikkilamchi bo'lib qoladi. Natijada sofistlar faoliyatida "notiqlik notiqlik uchun" qabilidagi holat yuzaga keladiki, bu antik davrdayoq qattiq tanqidga uchragan. Shunga qaramasdan, sofistlarning adabiy tanqidiy tafakkur rivojidadagi xizmati katta. Adabiyotni kasb deb tushunib, texnik tomonlariga ko'proq e'tibor qilganlari uchun ham sofistlar uni inson faoliyati mahsuli deb bildilarki, bu esa, A.F.Losev aytmoqchi, "naturfilosofiyaning kosmologizmidan sub'ektiv antropologizmga o'tishning ilk bosqichi" edi. Qadimgi Gretsiyadagi estetik qarashlarning muayyan tizimga solinishi ko'p jihatdan buyuk faylasuflar - Platon va Aristotel nomlari bilan bog'liqdir. Platon san'at narsaning mohiyatiga yetish, haqiqatni bilish imkonidan mahrum, chunki u narsaning o'ziga emas, u haqdagi tasavvur - narsaning soyasiga taqlid qiladi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, faylasuf fikricha eng yomoni ham shu, taqlidiy poeziya hayotdagi yuksak narsalar bilan bir qatorda tuban narsalarni ham aks ettirishi mumkinki, keyingi hol tufayli "hatto haqiqiy insonlarning ma'naviyatiga ham putur yetkazadi". Xo'sh, qanday qilib? Platon o'qish (tinglash, tomosha qilish) davomida kishi qahramonlarga hamdard



bo'lishi, ularga "poetik taqlid qilishi"ni, xuddi shu jarayonda uning dilida ham ayni damda qahramonlarda kechayotgan ehtiros va mayllar uyg'onishini aytadi. Holbuki, boshqa sharoitda bu ehtiros va mayllar aql tomonidan so'ndirib kelinadi, taqlidiy poeziya esa ularni uyg'otadi, "sug'oradi". Shulardan kelib chiqib Platon shogirdi Glavkonga "Gomerni ulug'lab, bu shoir Elladani tarbiyalagan" deguvchilarga yon berishni tayinlaydi, ayni paytda, "bizning davlatimizga poeziya faqat xudolarga madhiya va ezgu kishilarga maqto'v bo'lgani uchungina kiritiladi" deb uqtiradi. Ko'ramizki, Platon ta'limotida, xususan, uning tasavvuridagi ideal davlatda san'at va adabiyotga ikkinchi darajali rol ajratiladi, unga bir vosita sifatidagina qaraladi. Bu, albatta, bejiz emas. Avvalo shuki, Platonning ijodiy faoliyati qadimgi Gretsiya davlatchiligi - "polis demokratiyasi" inqirozga yuz tutgan davrga to'g'ri keladi. Shunday ekan, faylasufning ideal davlat haqida maxsus asar yaratishga qo'l urishi shaxsiy zarurat natijasi deb qaralishi mumkin. Tabiiyki, davlatchilikdagi inqiroz jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy qiyofasida ham jiddiy o'zgarishlar yasaydi, yana ham aniqrog'i, bu ikkisida inqiroz bir-biriga uzviy bog'liq holda, biri ikkinchisini taqozo etgan va keltirib chiqargan holda kechgan. Bunday sharoitda, birinchidan, Platonning ideal davlatdagi tarbiya masalasiga ayri-ayrancha e'tibor qilishi, ikkinchidan, ilgari qadriyatlariga tanqidiy munosabatda bo'lishi (masalan, Gomer ijodi va uning ahamiyati masalasida) ham tabiiy va zaruriydir. Platonning adabiy-estetik qarashlari uning boshqa muammolarga bag'ishlangan asarlarida o'z ifodasini topgan. Tabiiyki, bu holda san'at va adabiyot masalalari asosiy muammo nuqtai nazaridan qo'yiladi, yoritiladi va baholanadi. Masalan, poeziyaning mohiyati, taqlid qilish yoki ifoda usullari masalalariga to'xtalishdan ko'zlangan maqsad - uning davlat tizimidagi o'rni, ahamiyati haqidagi yuqoridagicha qarashlarini asoslash.

Zero, shogirdlar bilan suhbat yo'sinida qurilgan asarda "tom ustiga tom bosib" borish, har jihatdan asoslab tushuntirishga intilish ham tabiiy. Shu yo'ldan borgan faylasuf adabiyotshunoslik uchun muhim ko'plab masalalarni muhokama qiladi, qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Uning adabiy turlar masalasidagi qarashlari, harch shubhasiz, shunday fikrlar sirasiga kiradi. Birinchi bo'lib adabiyotni turlarga ajratgan Platon tasniflash asosi sifatida taqlid qilish usulini oladi. Unga ko'ra, "shoir va roviylar nima haqda gapirmasin, bu yo o'tmish, yo hozir va yo kelajak haqidagi hikoya" bo'ladi. Hikoya qilish esa "yo oddiy rivoya, yo taqlid qilish vositasida va yo ikkisining birligi asosida amalga oshishi mumkin. Shu o'rinda Platon "taqlid qilish" deganda nimani nazarda tutishini aniqlashtirib olish foydadan holi emas. Platon shoir yoki roviy o'zganing tilidan aytgan nutqni - personajlar nutqini taqlid qilish deb biladi. Chunki bu holda shoir yoki roviy "o'z nutqini o'sha personaj nutqiga imkon



qadar o'xshatishga harakat qiladi, ya'ni taqlid qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda Platon aytadiki, "poeziya va mifnavislikning bir turi to'laligicha taqliddan tarkib topadi - bu, sen aytgandek, tragediya va komediya; boshqa turi to'laligicha shoirning aytganlaridan iborat - buni ko'proq difiramblarda topasan; epik poeziya va boshqa ko'plab xillarda bu ikkala usul" qorishiq holda keladi. Ko'rib turganimizdek, bu o'rinda uchta adabiy tur - drama, poeziya va eposga xos xususiyatlar farqlanadi. Platonning qarashlari, garchi u san'at va adabiyotga oid maxsus asar yaratmagan esada, adabiy estetik tafakkur rivojiga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Platon adabiyotga ma'naviy-axloqiy me'yorlar nuqtai nazaridan yondashdi, shu mavqedan o'zigacha yaratilgan boy adabiy manbani tanqidiy o'rgandi, adabiyotning mohiyati va vazifalari, badiiy shakl va mazmun, badiiy asarni qabul qilish jarayoni, uning inson ongi va ruhiga ta'siri kabi qator muhim muammolar yuzasidan qimmatli fikrlarni bayon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Yangi avlod. 2016.
2. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. - Toshkent. O'zbekiston, 1996.
3. Amir Temur. Temur Tuzuklari. "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti. Toshkent -2020.
4. Mirziyoyev Shavkat. Adabiyot va san'at, ma'daniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori. (2017-yil 3-avgustdagi mamalakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi). "Xalq so'zi". 2017-yil. 4-avgust.
5. M.Xolmo'minov. "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish". O'quv uslubiy majmua. Toshkent - 2021.